




SIRDARYO VILOYATI  
STATISTKA BOSHQARMASI

**SIRDARYO VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT  
MUASSASALARI FAOLIYATI**  
*2023- yilda*



## SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

**Madaniyat bu** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig‘indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san’at, fan va manaviy tizimlarni o‘z ichiga oladi.

**Madaniyat** - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma’lum darjasи. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarda namoyon bo‘ladi.

**San’at** ijtimoiy ong va inson faoliyatining o‘ziga xos shaklidir. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘la boshlagan.

San’at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a’zolarini ma’lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san’at go‘zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g‘oyasiga aylangan.


**Teatr san’ati** azaldan insoniyatning ma’naviy hayotida o‘z o‘rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo‘lib, shundan keyingina jamoaviy san’at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san’atkoring muttasil ijodkorligini ko‘rsatadi, aktyor zamonaviy san’atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan nimadir qo‘shadi yoki olib tashlaydi.

# SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI


## SIRDARYO VILOYATIDA MUZEYLAR

Sirdaryo viloyatida 2023- yilda jami muzeylar soni **5** tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni **4** taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, **2,4** ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi **66,7 %** ni tashkil etgan.


**Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan muzeylar soni,**  
(tegishli yil uchun birlikda)



**Muzeylar sonini tuman va shaharlar kesimida  
taqsimlanishi,**  
(2023- yil uchun, birlikda)



**Muzeyga tashrif buyuruvchilar sonini tuman va shaharlar  
kesimida taqsimlanishi ,**  
(2023- yil uchun, ming kishi)



## SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlari mavjud bo'lib, **2023-** yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **2,8** mingtani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **0,2** mingtasi rassomlik, **0,003** mingtasi grafika, **0,001** mingtasi haykaltaroshlik, **0,3** mingtasi amaliy san'at, **0,4** mingtasi numizmatika, **1,1** mingtasi arxeologiya buyumlari, **0,2** mingtasi maishiy va etnografik buyumlar va **0,3** mingtasi suratlar, **0,1** mingtasi hujjatlar, **0,2** mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

### Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, 2023- yil uchun, birlik



### Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni, 2023- yil uchun, ming birlik




# SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI


## SIRDARYO VILOYATIDA TEATRLAR

2023- yilda mamlakatimizda jami teatrlar soni **1** tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010- yilga nisbatan solishtirilganda teatrlar soni **1** taga oshganligini ko'rsatadi. Teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **278** tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **143,5** ming nafarni tashkil etgan.

### Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan teatrlar soni (tegishli yil uchun, бирлик)



### Tuman va shaharlar kesimida (2023- yil uchun, birlik)




### Teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik



# SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI


## SIRDARYO VILOYATIDAGI TEATRLAR

Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni  
(tegishli yil uchun, ming kishi)




2023- yilda jami teatrlar soni 1 tani tashkil etib, ushbu teatrlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) 278 tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 143,5 ming nafarni tashkil etgan.


Faoliyat olib boriladigan tillar bo'yicha teatrlar soni, (2023- yil, %.)



Teatrlda namoyish etilgan spektakllar soni  
(tegishli yil uchun, birlik)



Teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar sonini  
tuman va shaharlar kesimida taqsimlanishi  
(2023- yil uchun, ming kishi)




## SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

### SIRDARYO VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK


Sirdaryo viloyatida 2023- yilda jami faoliyat ko‘rsatayotgan konsert tashkilotlari soni **2** ta bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘zgarmagan. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023- yilda **222** tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami **110,2** ming nafarni tashkil etdi.

#### 2023- yilda konsert tashkilotlari faoliyati


Konsert tashkilotlari soni  
(birlik)



Konsertlar soni  
(birlik)



Xizmat ko‘rsatilgan  
tinglovchilar soni  
(ming kishi)



2023- yilda faoliyat turlari bo‘yicha  
konsert tashkilotlari, birlik



Konsert tashkilotlar sonini tuman va  
shaharlar kesimida taqsimlanishi,  
(2023- yil uchun, birlik)



# SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

## 2023- yilda konsert tashkilotlarining faoliyati faoliyat turlari bo'yicha


	Konsertlar soni, <i>birlik</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>birlik</i>	Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni, <i>ming kishi</i>	Ulardan qishloq aholisi uchun, <i>ming kishi</i>
filarmoniya	180	90	94,0	36,0
gastrol-konsert	42	22	16,2	8,0
mustaqil jamoalar	-	-	-	-
konsert zallari, san'at saroylari	-	-	-	-

# SIRDRYO VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

## SIRDARYO VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLİSH ISTIROHAT BOĞ'LARI

2023- yilda Sirdaryo viloyatimizda 2 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud

### Madaniyat va dam olish istirohat bog'lari *2023-yil uchun, birlik*



8

## Statistik ko‘rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

**Madaniy meros** bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e’tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me’yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san’ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko‘hna shahrlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha va barqaror rivoqlanish statistikasi boshqarmasi**



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi



**Manzil:** 120100, Guliston sh.,  
Birlashgan ko‘chasi, 62-uy

**tel.:** +99867 236-70-00



e-mail:[info@sirstat.uz](mailto:info@sirstat.uz)



[www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz)



[facebook.com/sirdaryo viloyati](https://facebook.com/sirdaryo viloyati)

